XOJA AHMAD YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA USLUB MASALASI

Musayeva Mohiraxon Shoxobidin qizi,
FarDu tayanch doktoranti.
mohiraxonmusayeva1@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-7593-0699

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xoja Ahmad Yassaviy va Ubaydiy hikmatlaridagi til va uslub masalasi adabiy izdoshlik tamoyili asosida tadqiq etilgan. Unda Yassaviy tomonidan shakllantirilgan turkona uslubning asosiy xususiyatlari, jumladan, xalqona ifoda, sodda poetik bayon, tasavvufiy ramzlar va ruhiy kechinmalar ifodasi tahlil qilingan. Shuningdek, Ubaydiy hikmatlarida mazkur uslubiy an’ananing davomiyligi, shoirning individual poetik xususiyatlari, tasavvufiy istilohlarning qo‘llanishi, takror, radif va qofiya tizimining badiiy vazifalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida Yassaviy va Ubaydiy ijodida mushtarak uslubiy belgilar bilan bir qatorda, har bir ijodkorning o‘ziga xos badiiy tafakkuri ham namoyon bo‘lishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *Xoja Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, hikmat, turkona uslub, adabiy izdoshlik, tasavvuf, til, poetik vositalar, radif.*

KIRISH

Badiiy adabiyotda uslub ijodkorning estetik tafakkuri, voqelikni anglash va uni badiiy shaklda ifodalash tamoyillarini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. Uslub orqali adibning individual dunyoqarashi, poetik mahorati, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasi hamda badiiy tasvir usullari namoyon bo‘ladi. “Bir ijodiy metodga mansub yozuvchilarning har biri ijodining o‘ziga xos xususiyatlari “yozuvchining uslubi” (xalqaro adabiotshunoslikda “stili”) [1, B. 400] deb ataladi. “Har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o‘zlashtirish davomida orttirgan hissiyotlar tajribasi, olamni o‘ziga xos ko‘rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo‘li bo‘ladi”. [2, B. 6]. Shu jihatdan uslub faqat shakliy hodisa emas, balki muallifning ruhiy-estetik olami bilan bog‘liq murakkab badiiy kategoriya hisoblanadi. Har bir davr adabiyotida muayyan uslubiy yo‘nalishlar shakllanadi va ular keyingi ijodkorlar faoliyatida davom etib, yangi poetik qirralar bilan boyiydi. O‘zbek mumtoz adabiyotida Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan turkona uslub ana shunday yirik adabiy-estetik hodisalardan biridir.

Turkona uslubning muhim belgisi tasavvufiy-irfoniy mazmunni xalqona va sodda shaklda ifodalashidadir. Mazkur uslubda murakkab poetik bezaklardan ko‘ra ruhiy samimiyat, ichki kechinma va ma’naviy ta’sir ustun turadi. Shu sabab hikmatlarda xalq jonli tiliga yaqin ifoda, sodda sintaktik qurilish, maqol va iboralar, murojaat va nido shakllari faol qo‘llanadi. Mana shu ijodiy usullar Xoja Ahmad Yassaviy uslubining shakllanishida asosiy omil bo‘ldi.

MUNOZARA VA NATIJALAR.

Xoja Ahmad Yassaviy va Ubaydiy hikmatlari o‘rtasidagi adabiy izdoshlik eng avvalo til va uslub masalasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yassaviy tomonidan asos solingan turkona uslub keyingi davr hikmatnavis shoirlari, jumladan, Ubaydiy ijodida

ham izchil davom ettirilgan. Biroq Ubaydiy bu an’anani shunchaki takrorlamaydi, balki o‘zining poetik tafakkuri va irfoniy qarashlari hamda o‘ziga xos uslubi bilan boyitadi. Natijada har ikki ijodkor hikmatlarida umumiy uslubiy mushtaraklik bilan birga individual poetik xususiyatlar ham kuzatiladi.

Yassaviyning “ichinda” radifli hikmatida ham mazkur uslubning asosiy belgilari yaqqol namoyon bo‘ladi:

O‘zumni dardga qo‘ydum, cho‘mdum tengiz ichinda,
Durni sadafda ko‘rdum, gavharni kon ichinda.[3, B. 51]

Ushbu misrada “tengiz”, “dur”, “gavhar”, “kon”, kabi ramziy timsollar orqali Haqning inson qalbida tajalliy etishi ifodalangan. Yassaviy hikmatlarida istiora san’atining qo‘llanilishi ijodiy usul darajasiga ko‘tarilgan. Bu yerda tasavvufiy haqiqat murakkab falsafiy tavsiflarsiz, ixcham poetik obrazlar vositasida berilgan bo‘lib, bu Yassaviy ijodiy uslubining muhim xususiyatidir.

Ubaydiy hikmatlarida esa Yassaviy an’anasi saqlangan holda uslubiy jihatdan nasihat, irshod va murshidona murojaat kuchayadi. Agar Yassaviy hikmatida ko‘proq orif-solikning ichki ruhiy kechinmalari, Haqni qalban anglash jarayoni aks etsa, Ubaydiy hikmatida murshidning tolibga yo‘l ko‘rsatishi, axloqiy-didaktik ruh ustunlik qiladi:

Jon kabi sirrin asrab, istang ko‘nglunda oni,
Manzil Anga ko‘nguldur kavnu makon ichinda. [4, B. 246]

Yuqoridagi misrada ilohiy sirni qalbda saqlash, uni botiniy idrok orqali anglash zarurati ta’kidlanadi. Bu esa munojot-niyoz, o‘ziga nasihat usullarining davomiyligini ko‘rsatadi.

Ubaydiy hikmatlari tilining muhim jihatlaridan biri — tasavvufiy atamalarning faol va maqsadli qo‘llanishidir. “Sir”, “vahdat”, “tajalliy”, “ma’rifat”, “orif”, “ishq”, “zikr” kabi tushunchalar uning hikmatlarida markaziy o‘rinda tutadi. Ayniqsa, “sir” hodisasi ilohiy haqiqatning botiniy mohiyatini ifodalovchi asosiy poetik timsolga aylanadi.

Shuningdek, Ubaydiy hikmatlariga xos xususiyatlardan biri bayt tarkibidagi birinchi misrada kelgan so‘z yoki birikmaning ikkinchi misrada takrorlanishidir. Jumladan:

Bir qatra qoni ermish garchi ko‘ngul va lekin,
Daryo-daryo ma’ni bor bir qatra qon ichinda.

Ushbu baytda “qatra qon” birikmasi har ikki misrada mavjud. Birgina “Ichinda” radifli hikmatining 2-baytida 1-misrada kelgan “ko‘ngil” so‘zi 2-misrada takrorlangan. 3-baytda “qatra qon” birikmasi takrorlangan bo‘lsa, 4-baytda “javlonu jilvasig‘a” birikmasi 2-misrada teskari shaklda qo‘llangan. 6-baytda ham ayni shu shaklda 1-misradagi “bo‘ston-u bog‘” birikmasi 2-misrada “bog‘-u bo‘ston” shaklida qo‘llangan. Hikmatning yettinchi baytidagi “dard”, “darmon” so‘zlari takrorlanishi bilan birga tanosub san’atini ham yuzaga chiqargan. Hikmatning sakkizinchi baytda esa “Qur’on” so‘zi takrorlanadi va bunday misralardagi takrorlanish Ubaydiyda ijodiy usul darajasiga ko‘tarilgan. Ushbu takror birikmalarning faol va maqsadli qo‘llanishi ohangdorlik bilan birga ma’naviy teranlikni ta’minlab, hikmatlarning jilo va jozibasini oshiruvchi muhim poetik vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Har ikki ijodkor hikmatlarida radif va qofiya tizimi ham muhim uslubiy unsur hisoblanadi. “Ichinda” radifining takroriy qo‘llanishi nafaqat ritmik ohangdorlikni kuchaytiradi, balki g‘oyaviy markazni ham belgilaydi. “Jahon”, “makon”, “maydon”, “hayron”, “lomakon” kabi qofiyadosh birliklar she’riy musiqiylik bilan bir qatorda irfoniy-tasavvufiy mazmunning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ubaydiy ham ayni shakliy an’anani saqlab, mazmuniy jihatdan uni yangi ma’rifiy qatlam bilan boyitadi.

XULOSA

Xulosa shuki, Xoja Ahmad Yassaviy va Ubaydiy hikmatlari o‘rtasidagi til va uslub munosabatlari adabiy izdoshlikning muhim ko‘rinishidir. Yassaviy turkona uslubning asoschisi sifatida xalqchillik, sodda va ravon bayon hamda tasavvufiy ramzlarning poetik ifodasini shakllantirgan bo‘lsa, Ubaydiy ushbu an’anani davom ettirib, hikmatlardagi murshidona nasihat, irshod va ma’rifiy-didaktik ruhni yanada kuchaytirgan. Natijada yassaviylik adabiyotida til va uslub masalasi nafaqat badiiy shakl, balki irfoniy tafakkurning uzviy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. O‘qituvchi, 1986. 400-bet.
2. Boltaboyev H. Nasr va uslub. Toshkent. Fan, 1992. 6-bet.
3. Hasanov N.D. Sulton Ahmad Xaziniyning “Jvahirul abror min amvojul bihor” asari va uninng Yassaviyshunoslikdagi ilmiy-tarixiy qimmati, nom. diss…T., 1999. 51-bet.
4. Kulliyoti Ubaydiy. O‘zR FASHI, qo‘lyozma, inv. №8931. – 246 v.